

ZAYTUN (*Olea*) O'SIMLIGINING BIOLOGIYASI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI, XALQ TABOBATIDAGI AHAMIYATI

Jurayev.E.B

q.x.f.f.d (phd) Termiz Agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori

Usmonov Yo'ldosh Umarjon o'g'li

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti magistranti

Kenjayev Rauf Ro'ziboyevich

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7392107>

Annotatsiya. Ushbu maqolada zaytun o'simligining biologik xususiyatlari, tarkibi, shu bilan birgalikda inson organizmiga ta'sir qilish mexanizmlari va inson organizmida zaytun (*Olea*) o'simligi tarkibidagi moddalarning dorivorlik xususiyati, xalq tabobatida tutgan o'rni haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ahamiyati jihatidan muhim bo'lganligi sababli O'zbekistonda xususan Surxondaryo viloyati sharoitiga har qanday iqlim sharoitiga moslashtirib introduksiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida yoritilgan.

Kalit so'zlar: zaytun(*Olea*) Zaytundoshlar, Tib qonunlari", ko'ngil aynishi, revmatizm, asab kasalliklari, moddalar aylanishni yaxshilashi, ich qotishi, diabet, Galen farmakopeyasi.

БИОЛОГИЧЕСКИЕ И ЛЕКАРСТВЕННЫЕ СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ ОЛИВКИ (*Olea*), ЗНАЧЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ

Аннотация. В данной статье содержится информация о биологических свойствах растения маслина, его составе, а также механизмах его действия на организм человека, лечебных свойствах веществ, содержащихся в растении маслина (*Olea*) в организме человека, и их роль в народной медицине. Поскольку это важно по значимости, освещается о мерах по внедрению в условия Сурхандарьинской области Узбекистана, адаптации к любым климатическим условиям.

Ключевые слова: маслина (*Olea*) Olives, «Законы медицины», тошнота, ревматизм, нервные заболевания, улучшение обмена веществ, запоры, сахарный диабет, фармакопея Галена.

BIOLOGICAL AND MEDICINAL PROPERTIES OF THE OLIVE PLANT (*Olea*), SIGNIFICANCE IN FOLK MEDICINE

Abstract. This article contains information about the biological properties of the olive plant, its composition, as well as the mechanisms of its action on the human body, the medicinal properties of the substances contained in the olive plant (*Olea*) in the human body, and their role in traditional medicine. Since this is important in importance, it highlights measures to introduce adaptation to any climatic conditions in the conditions of the Surkhandarya region of Uzbekistan.

Keywords: olive (*Olea*) Olives, "Laws of Medicine", nausea, rheumatism, nervous diseases, improved metabolism, constipation, diabetes mellitus, Galen's pharmacopoeia.

Odamlar qadim zamonlardan tabiat ne'matlaridan foydalana boshlaganidan buyen dorivor o'tlardan kasalliklarni davolashda foydalanib kelganlar. Bundan 3—4 ming yil ilgari Hindiston, Xitoy, Qad. Misr mamlakatlarida shifobaxsh o'simliklar haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yozilgan. Sharqda, xususan O'rta Osiyo xalq tabobatida dorivor o'simliklardan

foydalanib davolash o'zining qad. an'alariga ega. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning „Al-qonun“ asarida 476 ga yaqin o'simlikning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Hozirgi vaqtda dorivor o'simliklarning turi ko'payib, xalq tabobati shifobaxsh o'simliklar bilan boyigan. Aholi sonining oshishi keng assortimentdagi dorivor, oziq-ovqatbop va xushbo'y-zirovor o'simliklar xom ashyosi xilma-xilligini ko'paytirishni hamda ulardan yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqishni taqazo etmoqda. O'z navbatida, bunday xususiyatlarga ekspertbop dorivor o'simliklarni tanlash, ular xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojlarni mahalliy florada mavjud bo'lgan yoki o'zga hududlar florasiga tegishli introdutsent o'simliklar hisobiga qondirish, o'simliklarni turli tuproq-iqlim sharoitida yetishtirishning samarali usullarini ishlab chiqish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Zaytun (*Olea*) — zaytundoshlar oilasiga mansub o'simlik turkumi. 600 ga yaqin turi ma'lum. Fakat bir turi — Yevropa zaytuni (*O. europaea*, 3. daraxti) xo'jalik ahamiyatiga ega. Zaytun: 1 — yetilgan mevali shoxi; 2 — g'o'ra mevasi. Mevasi marinadlanadi, g'o'rasi va pishgan mevasi konserva qilinadi. Z.ning pishgan mevasi etida (25—80%) qurimaydigan moy bor. 3., asosan, moyi uchun yetishtiriladi. Mevasini sovuqlayin presslab olinadigan birinchi fraksiya 3. moyi oziqovqat uchun, shuningdek, konserva sanoati va tibbiyotda ishlatiladi. Turpi va danagini qizdirib presslab olinadigan ikkinchi fraksiya 3. moyi texnikada va sovun pishirishda qo'llaniladi. Kunjarasi chorva uchun yem, yog'ochidan qimmatbaho buyumlar tayyorlanadi.

Zaytun moyi tarkibida oleyk kislotasi yuqori bo'lgan mono to'yinmagan yog'dan zaytun olinadi. Darhaqiqat, zaytun moyi HDL xolesterin yoki xolesterolni-yaxshi- ni tartibga solish orqali yurak-qon tomir tizimining sog'lig'ini ta'minlashda foydalidir.

Zaytun moyi ovqat hazm qilish xususiyatiga ega, laksatif ta'sirga ega, diuretik, biriktiruvchi, xolagog, yumshatuvchi, antiseptik, gipotenziv va yallig'lanishga qarshi vositadir. Bundan tashqari, u kuyish, hasharotlar chaqishi, shtammlar va burishlarni yumshatish va shilliq pardalar holatini davolash uchun ishlatiladi.

Bundan tashqari Ibn Sino bobomiz o'zining " Tib qonunlari" asarining 1-jildida zaytun (*Olea*) o'simligi haqida shunday deydi " U mashxur o'simlik ya'ni aromatik o'simlik bo'lib, insonning ichki va tashqi organizmiga ham ijobiy ta'sirlari juda ko'pligini, uning danagidan turli efir moylari borligi parhez, ich qotishi, ich qorin dimlanishida organizmni tozalashda juda muhim rol o'ynashini takidlab o'tgan

An'anaviy Xitoy tabobatida bosh og'rig'i, ko'ngil aynishi, revmatizm, asab kasalliklari , ich qotishi, diabet va shamollash kasalliklarni davolashda keng qo'llanilgan. Achchiq va issiq bo'lgani uchun zanjabil tanani isitadi va sovuq ekstremitalarni davolaydi, terini yaxshilaydi. Bu uning mashhurligi ziravor va dorivor o'simlik sifatida keng qo'llanilishini aks ettiradi.

Yuqoridagi oyatda berilgan «mubaarokatin zaytuunatin» ifodasi zaytunning «serob, tabarruk, yaxshi, behisob boylik ulashuvchi» ekanligini bildiradi. «Zaytuhaa» so'zida ko'zda tutilgan zaytun moyi olimlar tomonidan, ayniqsa, yurak tomirlari va arterial sog'lik uchun tavsiya etiladigan yog' turlaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Uning sog'likka keltiradigan foydalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin:

Zaytun mevasi va zaytun moyidagi ayrim yog' kislotalari mono-to'yinmagan hisoblanadi. Mono to'yinmagan yog' kislotalari tarkibida xolesterin bo'lmaydi. Shu sababli zaytun moyi xolesterin miqdorini oshirmaydi, balki uni nazorat ostida saqlab turadi. Zaytun moyi tarkibida inson tanasi uchun muhim bo'lgan omega-6 linoleik kislotasi ham mavjud. Mana shu xususiyati

tufayli sog'lik muammolari bilan shug'ullanuvchi (Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti kabi) tashkilotlar aholisi arteriya qon tomirlari aterosklerozi va qandli diabet kasalligi bilan ko'p og'rigan davlatlarda iste'mol qilinadigan yog' kislotalarning kamida 30% i omega-6 dan iborat bo'lishi kerakligini tavsiya qiladi. Bu zaytunning ahamiyatini yanada ko'proq oshiradi.

Zaytun moyi xavfli o'simtalarning prostata, ko'krak, yo'g'on ichak, tangachasimon hujayralar va qizilo'ngachga oid ba'zi turlariga qarshi himoya ta'siriga ega.

D. Pek, Mayami universiteti

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zaytun (Olea) o'simligi shifobaxshligi jihatidan qadim tarixga borib taqaladi. Tadqiqotchilarning ma'lumotlariga ko'ra, ko'p miqdorda zaytun moyi va pishirilgan sabzavot iste'mol qiladigan odamlarda revmatik poliartrit, bo'g'imlarning surunkali yallig'lanishi kasalligiga chalinish xavfi kam bo'lar ekan. Shu boisdan bu bebaxo o'simlikni O'zbekiston hududi xususan Surxondaryo viloyati hududida introduksiya ishlarini jadal olib borish va yurtimiz ichki bozoridagi zanjabilga bo'lgan ehtiyojni qondirish ishlarini olib borish yurtimiz da ziravor va dorivor o'simliklar ko'lami kengayishiga ham sabab bo'ladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatinibirgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 47 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 103 b.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
6. Abu Ali Ibn Sino " Tib qonunlari" saylanma 1-jild T-1983 (Tarjimonlar: A. Rasulov va b.) 200-201-b.
7. A. Abdullayev, B. X. Sattorov "Biologiyadan qisqacha izoxli lug'at" T-2016 . 134-b.
8. R. X. Ayupov va b. " Dorivor o'simliklar va ulardan foydalanish" T-2015. 135-betlar.
9. A.Abduraxmonov. Osobennosti tsveteniya i plodonovesheniya Dalnovostochnix rasteniy v usloviyax Tashkenta // Introduksiya i akklimatizatsiya rasteniy. Vip. 10, Tashkent: Fan, 1973, S.20-25.
10. Azimbaev S.A. Pochvi yujnoy chasti uzbekistana i ix meliorativnoe sostoyanie. Tashkent: Fan, 1991,140-s. Axmedova X.D. Introduksiya vidov magnoliy v Botanicheskiy sad AN
11. Babadjanov R. Otnoshenie introdutsentov k povishennoy letneytemperature vozduxa v usloviyax Botanicheskogo sada im. A.Temura.
12. Belolipov I.V. Opit introduksi travyanistix rasteniy prirodnoy flori Sredney Azii (Ekologo-introduktsionniy analiz): Aftoref. Diss....dakt. biol. nauk. M.,1983. 43-s.
13. Vavilov N.I. Uchenie o proisxojdennii kulturnix rasteniy posle Darvina//Sovetskaya nauka. 1940, N2. S. 55-76. 57